

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 25 065 tani tashkil etadi, shundan 20 753 tasi yoki 82,8 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025-yilning shu davriga nisbatan ko'payish 8,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda 8,6 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda)



Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	25 065	20 841	20 753
2025	23 098	19 184	19 101
2024	24 657	20 589	20 693
2023	31 427	27 470	27 368
2022	28 291	24 500	24 395

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Termiz shahrida – 19,8 foiz, Denov – 11,2 foiz, Jarqo'rg'on – 7,5 foiz, Sherobod – 7,0 foiz va Termiz tumanlarda – 6,5 foizdan faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Termiz shahrida – 88,5 foiz va 88,0 foiz, Denov – 82,7 foiz va 82,4 foiz, Jarqo'rg'on – 84,2 foiz va 83,8 foiz hamda Sherobod – 84,3 foiz va 84,2 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Termiz shahri	4 970	4 396	4 373
Denov tumani	2 816	2 329	2 320
Jarqo'rg'on tumani	1 871	1 575	1 567
Sherobod tumani	1 750	1 476	1 473
Termiz tumani	1 636	1 464	1 453
Qumqo'rg'on tumani	1 607	1 290	1 286
Sho'rchi tumani	1 606	1 321	1 318
Sariosiyo tumani	1 409	1 069	1 064
Angor tumani	1 282	1 083	1 077
Oltinsoy tumani	1 263	990	988
Uzun tumani	1 201	943	940
Qiziriq tumani	1 063	869	864
Muzrabot tumani	1 010	809	806
Boysun tumani	936	721	720
Bandixon tumani	645	506	504

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1-yanvar holatiga 34,0 foizni (40,9 foiz va 41,0 foiz) tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,0 % (14,3 % va 14,2 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 8,0 % (9,5 % dan).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turi	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 015	1 981	1 974
Sanoat	2 996	2 977	2 956
Qurilish	1 905	1 888	1 878
Savdo	8 531	8 531	8 517
Tashish va saqlash	628	623	618
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 761	1 754	1 754
Axborot va aloqa	418	412	411
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	703	438	437
Boshqa turlar	6 108	2 237	2 208

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 20 841 ta faol tijorat korxonalaridan 13 676 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar viloyatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	13 676	65,6
Xususiy korxonalar	4 031	19,3
Oilaviy korxonalar	2 893	13,9
Aksiyadorlik jamiyati	15	0,1
Boshqalar	226	1,1

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 500 ta korxonalardan 63 tasi qo'shma korxonalar va 437 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 17 taga oshgan. Bu asosan, axborot va aloqa sohasida 13 tadan 21 taga (o'sish 8 taga), savdo sohasidagi korxonalar sonining 289 tadan 295 taga, (o'sish 6 taga) va sanoat sohasida 67 tadan 70 taga (o'sish 3 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turi	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	500	63	437
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	36	11	25
Sanoat	70	23	47
Qurilish	30	6	24
Savdo	295	16	279
Tashish va saqlash	15	1	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13	1	12
Axborot va aloqa	21	-	21
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	1	4
Boshqa turlar	15	4	11

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 307 ta korxona bilan Afg'oniston respublikasi egalladi. Bu viloyatdagi chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 61,4 foizini tashkil etdi. Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (7,8 %), Tojikiston (7,2 %), Turkiya (6,2 %), Xitoy (5,4 %) va Qozog'iston (2,2 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	500	63	437
Afg'oniston	307	13	294
Rossiya	39	11	28
Tojikiston	36	8	28
Turkiya	31	7	24
Xitoy	27	8	19
Qozog'iston	11	4	7
Pokiston	9	-	9
Eron	6	4	2
Gruziya	6	-	6
Hindiston	5	1	4
Buyuk Britaniya	4	-	4
Janubiy Koreya	3	1	2
Armaniston	3	3	-
Belorussiya	3	-	3
Turkmaniston	2	1	1
Ozarbayjon	2	-	2
Ukraina	1	-	1
Yaponiya	1	1	-
Qirg'iz Respublikasi	1	-	1
Boshqa davlatlar	3	1	2

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-oktabrdagi "Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxona va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot korxona va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

O. Raxmonov
55 451-80-00 (76-50)

Maznil:

190108, Termiz shahar,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
